



IKKINCHI XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival ishtirokchilari!

Qadrlil do'stlar!

Xonimlar va janoblilar!

Siz, azizlarni Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilishi bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zinning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etishdan g'oyat mamnunman.

Ushbu anjumanda jahonning 70 ta davlatidan 260 nafardan ziyod mohir hunarmand va ustalar, taniqli ilm, madaniyat va san'at namoyandalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etayotgani unga dunyo miqyosida qiziqish va e'tibor katta ekanidan dalolat beradi.

Ma'lumki, har qaysi xalqning amaliy san'ati uning boy o'tmishi va madaniyati, azaliy qadriyatlarini, orzu-intilishlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Qariyb uch ming yillik tarixga ega bo'lgan bizning jonajon Vatanimiz ham hunarmandchilik sohasidagi o'lmas an'analari, mohir usta va hunarmandlari bilan shuhrat qozonib keladi.

Ayniqsa, mana shu anjumanga mezbontlik qilayotgan go'zal Farg'ona viloyati, yurtimizning qadimiy shaharlaridan biri bo'lmish Ho'qandi latif o'zining bu boradagi betakror merosi, tarixiy maktablari bilan alohida ajralib turadi.

Biz bu o'lkada kulolchilik, ipak va abri matolar ishlab chiqarish, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik va naqqoshlik san'ati, pichoqchilik, do'ppido'zlik kabi hunar tur-

lari keng rivojlanib, milliy brend darajasiga ko'tarilgani bilan faxrlanamiz.

Jahon hunarmandchilik kengashi qaroriga ko'ra, Qo'qon, Buxoro va Marg'ilon kabi ko'hna shaharlarimizga Hunarmandchilik shahri maqomi berilganini biz asrlar mobaynida avloddan-avlodga bezavol o'tib kelayotgan boqiy an'ana va qadriyatlarimizning yuksak e'tirofi sifatida qabul qilamiz.

Aziz do'stlar!

Keyingi yillarda yurtimizda xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, bu borada tarixiy an'analarni izchil davom ettirayotgan mohir ustalarimiz mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Bu haqda gapirganda, qisqa muddatda bir qator farmon va qarorlar qabul qilinib, ushbu soha vakillariga zarur imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilganini ta'kidlash lozim. Ana shunday sa'y-harakatlarimiz tufayli milliy hunarmandchilik san'ati jadal rivojlanmoqda. Buning tasdig'ini so'nggi yetti yilda "Hunarmand" uyushmasi a'zolari 7 barobardan ziyod ko'payib, 10 ming nafardan salkam 80 ming nafarga yetgani, sohada band bo'lganlar esa 280 ming nafarni tashkil etayotgani yaqqol ko'rsatib turibdi.

Soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, iqtidorli shogirdlar tarbiyalab, o'z ijodiy maktablarini yaratgan qo'lgul ustalarimizning sharafli mehnati davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan munosib e'tirof etilmoqda. Yuzlab usta va hunarmandlarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari — faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda.

Hunarmandchilik xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o'rin egallamoqda. Mamlakatimizda shu yo'nalishda yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko'rgazmalari va boshqa tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Yurtimizda ikkinchi bor o'tkazilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivaliga uyg'un holda Rishton tumanida Xalqaro kulolchilik forumi bo'lib o'tayotgani ham bejiz emas. Nega deganda, Rishton nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoda kulolchilik markazi sifatida ma'lumu mashhurdir.

Albatta, mana shunday anjumanlar xalq amaliy san'atiga daxldor qadimiy merosimizni asrab-avaylash, uni dunyo miqyosida keng targ'ib etish, yoshlarimizni nodir kasb-hunarlariga hurmat va mehr ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga egadir.

Shu ma'noda, bugun ochilayotgan ushbu festival san'at va do'stlik, iste'dod va mahorat bayrami sifatida barcha ishtirokchilar va xalqimiz qalbidagi yorqin iz qoldiradi, deb ishonaman.

Siz, hurmatli festival qatnashchilariga sihat-salomatlik, olijanob faoliyatingizda yutuq va omadlar, anjuman doirasidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Xush kelibsiz, qadimiy va betakror O'zbekistonga, xush kelibsiz, go'zal Qo'qon shahriga!

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

DUNYO HUNARMANDLARI QO'QONDA JAM BO'LDI

Qo'qon shahrida ikkinchi bor o'tkazilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivali va Rishton tumanidagi Xalqaro kulolchilik forumining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.



Dunyoda latif shahar maqomiga ega yagona kent — Qo'qon bugun har qachongidan-da maftunkor. Bu yerga kelgan kishi xuddi ertaklar olamiga tushib qolgandek bo'ladi. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Ho'qandi latif ko'hna tarix va zamonaviy taraqqiyotning mezon va an'analarni o'zaro uyg'unlashtirib, bir paytning o'zida ham sharqona latofati, ham bugungi dunyo

tamadduniga hamohang hashamati bilan jahon hamjamiyatini o'ziga qaratmoqda.

O'zbek xalqi kundalik hayotining ajralmas qismi bo'lgan hunarmandchilik san'ati, xususan, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, kulollik, to'qimachilik, zardo'zlik, sozgarlik, kandakorlik, zargarlik necha-necha ming yillik tarixga, o'ziga xos ijodiy maktab

va an'analarga, atqli namoyandalarga ega. O'zbekistonlik ustalar tomonidan tayyorlangan ko'plab badiiy hunarmandlik va amaliy san'at mahsulotlari bugungi kungacha dunyoning mashhur muzeylarida saqlanishi ularning jahon xalqlari tarixida muhim o'rin egallaganidan dalolat beradi.

[Davomi 2-betda](#)

TAHLIL VA TAQQOS



Baliqchi bobolarning hikoya qilishlaricha, Orolning to'rtta ko'zi bor. Birinchisi dengizning qoq markazida. U yerda suv o'tov kattaligiday keladigan girdob bo'lib yer tagiga singib ketadi. Ikkinchisi Ustyurtdagi Gurkureuik qudug'i. Bu yerda suv yer ostida gurkirab oqib turadi. Kechasi qaynagan qumg'ondek shaqirlagan ovozi olis-olislargacha tarqalib, kishini qo'rquvga soladi. Uchinchisi Taxtako'pir tumanidagi

**Olis tarixga
qisqacha nazar**

— Orol ko'li bir vaqtlar kattaligi jihatidan jahonda to'rtinchi o'rinda turgan va shu sababli dengiz deyilgan, — deydi Qoraqalpog' davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori

Qorateran ko'li. To'rtinchisi bir oz jumboqli. Biri qadimgi Ipak yo'liga tutash bo'lgan, Mo'ynoqqa kiraverishda dengiz tomon ketgan eski karvon yo'llari desa, boshqasi Orol bilan Kaspiyning bir-biriga bog'liq yana boshqa joyi mavjudligini nazarda tutadi. Ayni avlod vakillari hozirgi kunda uning beshinchi "ko'zi" ham bor deyishadi...

Ro'za Balliyeva. — O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida joylashgan mazkur dengizda bandargohlar, baliq va baliq mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, qolaversa, baliq ovlovchi yuzlab kema suzib yurgan. 1950-yilda Orol dengizi hududi 68 ming kvadrat kilometr edi. Uzunligi 426 kilometr, eni 284 kilometr, eng chuqur joyi

esa 68 metr bo'lgan. O'tgan asrning 80-yillariga cha 34 turdan ziyod baliq yashagan.

Dengiz o'z tarixida bir necha marta qurib, yana suv bilan to'lgani aytiladi. Buni uning tubidan topilgan ko'p sonli flora va fauna topilmalari ko'rsatib turibdi.

[Davomi 4-betda](#)

BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON PREZIDENTI ILGARI SURGAN TASHABBUSLAR

AMALIY JIHATDAN HAYOTGA TATBIQ ETILISHI HOZIRGI MURAKKAB GEOSIYOSIY DAVRDA ANIQ-RAVSHAN IJOBIY NATIJALARGA OLIB KELADI

Xitoyning yetakchi tahlil markazlari ekspertlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi haqida

Li SZIGO,
XXR Tashqi ishlar vazirligi
huzuridagi Xitoy xalqaro muammolar
akademiyasi Yevrosiyo instituti
direktori:

— Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan 78-sessiyasidagi ma'ruzasida mamlakatning kelgusi yillarga mo'ljallangan siyosatiga oid strategik qarashlarini ham bayon etdi. Xususan, u ichki islohotlarni

ilgari surish va milliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni global mehnat taqsimotiga integratsiya qilish va JSTga muddatidan oldin a'zo bo'lish, yaxshi qo'shnichilik, hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalariga to'xtalar ekan, Markaziy Osiyodagi sheriklik, shuningdek, mintaqada ekologik xavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikka alohida urg'u berdi.

[Davomi 2-betda](#)

ILM-FAN YUTUQLARI

ELEKTROTRAKTOR YARATILDI

yoxud ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi samaralari

**To'rt yilda
900 ga yaqin loyiha
moliyalashtirildi**

Jahon ilm-fan rivoji, tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish uchun ularning izdoshi, davom ettiruvchisi sifatida yangiliklar yaratish muhim sanaladi. Bugun hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz o'zining dunyoqarashi va muammoga yangicha munosabati, bu boradagi ilmiy izlanishlari bois, mana shunday baxtga sazovor bo'lganlardan. Ularning yangi g'oyalari ilmiy hajmdor mahsulotga aylanib, turli sohalar rivojiga hissa qo'shmoqda.



[Davomi 5-betda](#)

MUNOSABAT

ASRIY AN'ANALARNI DAVOM ETTIRISH YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida mamlakatimiz, mintaqamiz va butun dunyo miqyosidagi dolzarb muammolarni, tezkor yechimini kutayotgan masalalarni tilga olar ekan, diniy bag'rikenglik masalasiga alohida to'xtalib o'tdi.

Mamlakatimiz rahbari jahon miqyosida dinlaro bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarni keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish taklifini ilgari surdi.

Bu hozirgi vaqtda eng faol tarzda muhokama qilib kelinayotgan mavzulardan biri. Insoniyatning yarmidan ziyodi o'zini qaysidir dinga mansub hisoblaydigan hozirgi sharoitda bu tabiiydir. Zero, jamiyatlarning, davlatlararo munosabatlarning barqarorligi ko'p jihatdan shu masalaga borib taqaladi.

Diniy bag'rikenglikni ta'minlash uchun, avvalo, mamlakat, mintaq va umuman, jahon jamoatchiligida boshqa insonlar o'ziga dinga e'tiqod qilishi mumkinligini, mahalliy xalqlar an'analarga o'xshash bo'lmagan qadriyatlariga duch kelishning yomon joyi yo'qligini anglab, insoniyat o'ta rang-barangligiga, odamlar turfa xilligiga ko'nikib yashashga qaratilgan muayyan dunyoqarash, o'ziga xos ijtimoiy va axloqiy me'yorlarni joriy etish, omma ongiga singdirish zarur bo'ladi.

Dunyoda keng tarqalgan dinlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin hammasini biladiganlar

kam. Agar konfessiyalarni, ya'ni har bir dindagi turli mazhab va yo'nalishlarni ham qo'shib aytadigan bo'lsak, ularning umumiy miqdori 20 mingdan oshadi. Shu bois, diniy bag'rikenglikni har bir individning — alohida olingan shaxsning xatti-harakatlari kabi qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, yomg'ir yoqqanda hamma ham yomg'irpo'sh tutmaydi, shamsiyadan foydalanmaydi, bunday toifalarga ko'p e'tibor berilmaydi. Bu o'sha shaxsning o'z xohishi yoki sharoitdan kelib chiqib, tutgan yo'rig'idir. Konfessiya borasida ham shunday — kimdir boshqa narsaga e'tiqod qilayptimi, demak, o'z tanlovi, o'z ixtiyoriga ko'ra qilayotgan bo'ladi va buning uchun uni ayblash, kamsitish kerak emas.

[Davomi 3-betda](#)



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

DUNYO HUNARMANDLARI QO‘QONDA JAM BO‘LDI



Boshlanishi 1-betda

Shunday omillar sabab bo‘lsa kerak, bu noyob san‘atning ko‘plab yo‘nalishlarida samarali faoliyat ko‘rsatgan, ularga izdosh va voris bo‘lgan iste‘dodli hunarmandlar doimo el-yurt orasida hurmat-ehtromga sazovor bo‘lib, “usta”, “ustazoda” degan sharaflil nomlar bilan e‘zozlanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy madaniyatimizning barcha sohalarini qatori hunarmandlikni, uning an‘analari va maktablarini tiklash, rivojlantirish va targ‘ib etishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Keyingi yillarda ana shu boy madaniy merosimizni asrab-avaylash, xalq badiiy va amaliy san‘atini yanada rivojlantirish, bu borada tarixiy an‘analarni izchil davom ettirib kelayotgan mohir ustalarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilinib, ularga yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratildi.

Bunday amaliy sa‘y-harakatlar natijasida yurtimizda milliy hunarmandchilik san‘ati jadal rivojlanib bormoqda. O‘zbek milliy hunarmandchiligi markazi bo‘lgan Farg‘ona viloyati Marg‘ilonning atlas va adraslari, Rishtonning kulolchilik san‘ati, Qo‘qonning yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik maktablari bilan dunyoga mashhur. Marg‘ilon va unga tutash tumanlarda mato va gilam to‘qimachiligi, milliy libos va poyabzal tayyorlash bilan 3 mingga yaqin, Rishton tumanida an‘anaviy kulolchilik bilan 5 mingdan ortiq, Qo‘qon shahri va unga tutash hududlarda yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik kabi hunarmandlik turlari bilan 10 mingga yaqin oilalar shug‘ullanadi. Har yili mazkur sohada minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

“SMART WATER”

suv o‘lchash va nazorat qilishning innovatsion usuli

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yuz bergan va yuzaga kelayotgan muammolarga yechim topish — bugunning dolzarb masalasi. Yer sayyorasining ekologik ko‘rinishi o‘tgan asrdagiga nisbatan misli ko‘rilmagan darajada o‘zgardi. Keyingi yillarda global muammoga aylanib borayotgan suv tanqisligi dunyoning ko‘pgina davlatlarida kuzatilayotir. Bu esa bevosita suvni tejash, undan samarali foydalanishni talab etmoqda. Oqilona foydalanish mana shu talabning o‘zi bilan kifoyalannmaydi. Muammo global ekan, demak, innovatsion yechimlar zarur.

Aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlari o‘shishi, ularning suvga talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslari taqchilligi yildan-yilga kuchayib borayotgani masalaga yanada mas‘uliyat bilan yondashish zarurligini taqozo etadi. Suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish hosildorlik kamayib ketishiga yoki ekinlar nobud bo‘lishiga olib keladi. Bu kabi holatlarning oldini olish elektron qurilmalar yordamida qishloq xo‘jaligida ishlatilayotgan suv miqdori doimiy va aniq monitoring qilish zarurati yuzaga keltiradi. Prezidentimizning 2020-yil 10-iyulidagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida suv xo‘jaligini rivojlantirishning qator ustuvor yo‘nalishlari keltirilgan. E‘tiborli jihati, “suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanishni va suv iste‘moli hisobini yuritishda “Smart Water” (“Aqlli suv”) va shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy qilish” yo‘nalishi bo‘ldi. Shu bois, “Suv sathi va sarfini o‘lchovchi elektron uskuna ishlab chiqarish” loyihasi doirasida izlanishlar olib bordik.

Konsepsiyada suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, obihayotning hisobini yuritishda “Smart Water” va shu kabi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ekinni yetishtirishda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilinishini kengaytirishni rag‘batlantirish, sug‘o-

riladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirishga ko‘maklashish, tuproqning sho‘rlanish darajasini pasaytirish va uning oldini olish bo‘yicha samarali texnologiyalarni qo‘llash singari ko‘plab vazifalar belgilab berilgan.

Bundan ko‘zlangan maqsad sug‘orish tizimlarining foydali ish ko‘effitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish, suv ta‘minoti past darajada bo‘lgan sug‘oriladigan maydonlarni 560 ming gektardan 190 ming gektargacha, sho‘rlangan yerni 226 ming gektarga qisqartirishdan iborat. Qolaversa, barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga “Smart Water” suv o‘lchash va nazorat qilish qurilmalari o‘rnatib, tejamkor texnologiyalar bilan qamrab olingan yerning umumiy maydoni 2 million gektarga yetkazilishi ham asosiy vazifalardan sanaladi.

Bu bejiz emas. Global iqlim o‘zgarishi va boshqa antropogen ta’sirlar oqibatida daryolar suvi kamayishi kuzatilmoqda. Suv sarfining ishonchli hisobi yuritilishi tejamkorlikka erishishga xizmat qiladi. Real vaqt rejimida, raqamli texnologiyalar yordamida nazorat qilish imkonini beradigan “aqlii” hisoblash vositalarida aniqlik darajasi yuqori bo‘ladi. Bu sarf-xarajalni o‘lchash, ma‘lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash bosqichida inson omili hamda uning ishtirokini minimallashtiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi qarorida suv hisobi va hisobotini inson omiliga minimal ravishda

lagan tabrigini Prezident Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamentining rahbari Odiljon Abdurahmonov o‘qib eshittirdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Butunjahon hunarmandlar kengashi prezidenti Saad Al Qaddumiy O‘zbekistonda madaniyat va san‘atni rivojlantirish, ayniqsa, hunarmandlikni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilayotgani, xalqaro hunarmandlik festivali ana shu sa‘y-harakatlarining yuksak namunasi ekanini qayd etdi.

Mazkur tadbirning Qo‘qon shahrida o‘tkazilishi farg‘onaliklarni behad mamnun qilmoqda. Ikkinchi bor o‘tkazilayotgan bu bayram keng miqyosli bo‘lib, unda 70 ta mamlakatdan davlat va jamoat arboblari, ustazoda hunarmandlar, xalq amaliy san‘at ustalari, mutaxassislar, soha olimlari, faxriy mehmonlar, madaniyat va san‘at namoyandalari ishtirok etmoqda.

2019-yilda ilk bor o‘tkazilgan xalqaro hunarmandchilik festivalida Qo‘qon shahriga jahon hunarmandlar shahri maqomi berildi. Qo‘qon qadim-qadimdan hunarmandchilik rivojlangan madaniy markazlardan biri bo‘lib kelgan. Bu yerda hunarmandchilik va xalq amaliy san‘atining turli yo‘nalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Ustoz-shogird an‘analari, hunarmandchilik bo‘yicha oilaviy sulolalar uning sir-asrorlarini ajdodlardan avlodlarga yetkazib kelmokda. Bugungi kunda ham Qo‘qon shahrida hunarmandchilik an‘analari izchil rivojlanmoqda. Xususan, yog‘och o‘ymakorligi, chilangarlik, zargarlik kabi hunarmandchilikning ko‘plab turlari ravnaq topmoqda.

Aytish lozimki, 2019-yilda birinchi bor o‘tkazilgan xalqaro hunarmandchilik festivalida 78 ta mamlakatdan 570 nafar ishtirokchi, yurtimizning 14

ta hududidan esa 1000 dan ortiq mahalliy hunarmandlarimiz ishtirok etib, tadbirga bir milliondan ortiq tashrif buyuruvchi va xorijiy sayyohlar kelgan. Ushbu nufuzli tadbirning o‘tkazilishi natijalariga ko‘ra, Qo‘qon shahriga sayyohlar oqimi 10 barobarga, hunarmandlar soni 3,5 barobarga, mehmonxonalar 2,5 barobarga oshdi.

Shahar markazidagi salobatli maydon uzra yoqimli kuy taraldi. Bu ohang qalbarga singib, ko‘ngilning nozik torlarini chertadi. Yuraklarga hayajon, zavq soladi. Bu kuy sehiri, nozli ohang shavqi, musiqa qudratining amaldagi ifodasidir.

Xalqaro hunarmandchilik festivalining ochilish marosimidagi mumtoz ashulalar, folklor namunalari, jahon musiqa va qo‘shiqchilik san‘atining nodir namunalari, dilbar raqslar dillarni jo‘sh urdiradi. Tomoshabinlar yurakka yaqin qo‘shiqchalarga jo‘r bo‘ladi, sho‘x kuy-navolardan zavqi oshib, raqsqa tushadi.

Festivalga tayyorarlik jarayonida Qo‘qonda keng ko‘lamli qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Tarixiy ziyoatgohlar, shahar ko‘chalari, bino-inshootlarda kapital ta‘mirlash, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Shu tariqa ko‘hna kent bugun to‘liq yangicha qiyofada namoyon bo‘lmoqda.

Nufuzli tadbirga uyg‘un holda Rishton tumanida xalqaro kulolchilik forumi o‘tkaziladi. Tadbirning ilk kunida xorijlik va mahalliy soha vakillari ishtirokida “An‘anaviy badiiy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirish sohasida jahon amaliyoti” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Festival doirasida bir qator tadbirlar, mahalliy va xorijiy hunarmandlarning mahsulotlari ko‘rgazma-savdosi, festivalni o‘tkazish va yakunlari bo‘yicha matbuot anjumanlari, etno-moda namoyishlari, xalq sayillari, qo‘g‘irchoqbozlik va dorbozlar tomoshalari, viloyatlar folklor jamoalari va madaniyat boshqarmalari konsert dasturlari, osh tanlovleri, kulolchilik mahsulotlari ko‘rgazma-savdosi, mohir kulollar shahri Rishton hamda Furqat tumani bo‘ylab sayohat o‘tkaziladi.

Tantanalil marosim yurtimiz san‘at ustalari, yosh ijrochilarining sho‘x va diltortar qo‘shiqchlari bilan davom etdi. Qo‘qon osmoni uzra porlagan mushaklar dillarga quvonch, qalblarga shodumonlik bag‘ishladi.

Ushbu festival nafaqat ko‘p millatli xalqimiz, balki butun dunyo hunarmandlarining bayrami hamdir. Zero, festival ko‘lamining kengligi uning jahon xalqlari madaniyatini bog‘lovchi muhim ko‘priki bo‘lishidan dalolatidir.

Ma’sudjon SULAYMONOV, O‘ZA muxbiri

laridagi suv miqdori o‘zgarib borishini doimiy monitoring qilishda elektron qurilmalardan foydalanish esa aniq ma‘lumotlar olish va suvni tejash imkoniyatini yaratadi.

“Aqlii” qurilmaga ultratovush uzatkich (datchik)lar o‘rnatilgan bo‘lib, sug‘orish tarmoqlaridagi suv miqdorining oqim davomida sarflanishini monitoring qilib boradi. Ya’ni suvning kamayib borishi, kanalning oxirigacha qancha suv borayotganini aniqlaydi. Datchiklar kanalning o‘rtasiga, suvdan balandga joylashtiriladi. Shundan so‘ng suv sathi o‘rtasidagi masofa aniqlanib, kanalidagi suv miqdori qanchalik kamayayotgani to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

Xorazm viloyatida ushbu qurilmaga talab 187 tani tashkil qilmoqda. Ixchamligi, dasturi o‘zbek tilida ekani, dispetcherlik xizmati, monitoring xususiyatlari va arzonligi bilan muqobilardan farq qiladi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqida keyingi 30 yilga martaqamizda havo harorati bir yarim darajaga ko‘tarilgani oqibatida muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo‘qolib ketgani ni alohida ta’kidladi. Shuningdek, ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda martaqamizdagi ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foiz qisqarishi mumkinligi ham bayon qilindi. Bu qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi 40 foiz kamayishiga sabab bo‘ladi.

Ayrim ekinlarni yetishtirishda suv sarfini qiyosiy hisoblab ko‘rsak, bir tonna bug‘doy yetishtirish uchun bir yarim tonna, bir tonna sholi hosiliga kirishi uchun esa 4-5 ming tonna suv sarflanadi. Demak, bu borada tejamkor uskunalarning ahamiyati katta. Har birimiz ekologik madaniyatni yanada yaxshilab, muammolarga ilmiy yondashuvlar orqali yechim topsak, tabiat bergan ne‘matlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish mas‘uliyatini bajargan bo‘lamiz.

Elmurod SOBIROV, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv muammolari ilmiy-tadqiqot markazi laboratoriya muhandisi

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ILGARI SURGAN TASHABBUSLAR

AMALIY JIHATDAN HAYOTGA TATBIQ ETILISHI HOZIRGI MURAKKAB GEOSIYOSIY DAVRDA ANIQ-RAVSHAN IJOBIY NATIJALARGA OLIB KELADI

Xitoyning yetakchi tahlil markazlari ekspertlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi haqida



Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston rahbari ilgari surgan juda muhim tashabbuslarni alohida qayd etish lozim. Bular BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan “Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori” borasidagi tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili BMT shafeligida “Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo‘l” jahon konferensiyasini o‘tkazish, BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruhi tashkil etish, ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish, O‘zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etish va boshqa takliflardir.

O‘zbekiston rahbari o‘z nutqida ishonch inqirozi tufayli dunyodagi mavjud vaziyatdan xavotirda ekanini ham ta’kidladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev hamijhatlik ruhini saqlab qolish va mamlakatlarni umumiy manfaatlar asosida birlashtirishga umid bildirgan holda, iqlim o‘zgarishi, qashshoqlikka barham berish va o‘chlik kabi butun insoniyatga daxldor global masalalarda birlamlik va hamkorlikka chaqirdi.

Chen YUSZUN, Xitoy xalqaro muammolar akademiyasi Yevroosiyo instituti direktori o‘rinbosari:



— Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida global muammolarga o‘z munosabatini bildirdi, shuningdek, ijtimoiy himoya, xavfsizlik, ekologiya, ta’lim sohalariga doir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlat rahbari bugungi kunda mamlakat aholisining yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi yoshlar masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. Bu tasodifiy emas. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda O‘zbekiston yosh avlod turli ekstremistik va terroristik guruhlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, shuningdek, yoshlarning ulkan salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha martaqaviy loyihalarni faol ravishda ilgari surmoqda.

Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yaqinda Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan beshinchi maslahat uchrashuvida O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitim imzolandi.

Shu munosabat bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda

yoshlarning rivojlanishiga ko‘maklashish mintaqa xalqlari barqarorligi va farovonligining kaliti hisoblanishini ta’kidlashni istar edim. Bu inson kapitaliga asoslanadi, uning rivojlanish darajasi esa Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarning kelajagini belgilaydi.

Den XAO, SHHT tadqiqotlari instituti direktori:

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston tizimli o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritmoqda.

Dunyoda qashshoqlik darajasini pasaytirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilash, ta’lim tizimini modernizatsi-



yalash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi muvaffaqiyatlar qadrlanadi.

O‘zbekiston rahbarining butun insoniyat uchun xavf-xatar va tahdidlarning misli ko‘rilmagan darajada ko‘payishi bilan bog‘liq zamonaviy global jarayonlarga bergan baholari alohida ahamiyatga ega. Shavkat Mirziyoyevning geosiyosiy qarama-qarshiliklar butun insoniyat taqdiriga daxldor masalalarda ham muloqotga putur yetkazayotgani haqidagi bayonotiga qo‘shilmaslik aslo mumkin emas.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston rahbarining jahon hamjamiyatiga qanday sayyorani kelajak avlodlarga qoldirishimiz haqida o‘ylashga chaqirig‘i muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlaganidek, bugungi kunda o‘zaro ishonch, hamijhatlik va hamkorlik har qachongidan ham zarur.

Xarli SEYDIN, Janubiy Xitoydagi Amerika savdo palatasi prezidenti, doktor:

— Bugun Markaziy Osiyo jadal rivojlantayotgan mintaqalardan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston milliy manfaatlarni faol ilgari surayotgani, martaqaviy va xalqaro xavfsizlik muammolariga katta e‘tibor qaratgani holda ularning hal etilishi yuzasidan astoydil jonkuyarlik qilayotgani bilan ajralib turadi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Markaziy Osiyoni tinch va farovon mintaqaga aylantirish bundan buyon ham O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo‘lib qoladi, degan so‘zlari bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning amalda hayotga tatbiq etilishi jahon iqtisodiyotining barqaror o‘shishi sekinlashgan hozirgi murakkab geosiyosiy davrda aniq-ravshan ijobiy natijalarga olib keladi.

“DUNYO” AA

Pekin



ASRIY AN‘ANALARNI DAVOM ETTIRISH YO‘LIDA



DO‘STONA VA TINCHLIKPARVAR TASHQI SIYOSAT MOHIYATIGA HAMOHANG



Shovosil ZIYODOV,
Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi
direktori

Boshlanishi 1-betda

Mana shu me'yorga hayotda hamma rioya qilsa, diniy bag'rikenglik jamiyatining yana bir oliy qadriyatiga aylanadi va ijtimoiy barqarorlikka rahna yetishiga yo'l qo'yilmaydi. Zotan, fuqarolik jamiyati mana shunday bag'rikenglik bilan qaror toptiriladi — uning a'zolari o'zi ixtiyor etgan dinga e'tiqod qiladi, qaysi konfessiyaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, bexavotir yashaydi.

Endi shu fikrlardan kelib chiqib, bugungi O'zbekistonga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, shuni aytish kerakki, bu zaminda asrlar davomida ko'plab dinlar vakillari tinch-osuda istiqomat qilib kelmoqda. Bir necha yillar oldin o'sha kezlari AQSH Davlat kotibi bo'lgan Jon Kerrining Samarqand taassuroti haqida aytgan mana bu so'zlarini hamma yaxshi eslaydi: *"Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti 70 yil avval Nyu-Yorkda tashkil topgan, deb o'ylaymiz. Yo'q, aslida, u bundan bir necha yuz yil oldin Samarqandda mavjud bo'lgan. Samarqand — madaniyat, san'at, savdo va g'oyalar chorrahasi bo'lib, bu yerda turkiylar, arablar, musulmonlar, yahudiylar, yunonlar, armanlar, nasroniylar, katoliklar, nestorianlar va boshqalar istiqomat qilgan"*.

O'zbek xalqi asrlar davomida islom diniga e'tiqod qilib keladi. Ayni paytda O'zbekiston zaminida yashovchi slavyanlarning ota-bobolari ming yil oldin, balki undan ham avval nasroniylarni qabul qilgan. Buddizm esa, uzoq Kushonlar davrida keng yoyilgan edi. Barcha dinlar bir xil fazilatlarini — tinchlikparvarlik, bunyodkorlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik va poklik, kattaga hurmat, kichikka izzat va boshqa go'zal xulq-atvor namunalarini targ'ib qiladi va tarannum etadi. Shular qatorida diniy bag'rikenglikni ham.

O'zbekistonda bugungi avlod o'z ajdodlarining ana shu asriy an'anasini munosib tarzda davom ettirmoqda. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas.

Abu Mansur Moturidiyga murojaat qilamiz: *"Cherkov va sinagogalarni barbad qilish taqiqlanadi, ulamolar bu borada hamfikrdir, shu vajdan musulmon o'ikalarida ularga ziyon-zaxa yetmaydi"*. Abu Lays Samarqandiy bunday deydi: *"Alloh musulmonlarga diniy tufayli ular bilan urush qilmagan va diyoridan qumagan qavmlarga nisbatan yaxshi va odilona muomalada bo'lishni man etmaydi"*. Burhoniddin Marg'inoniy bu fikrni yana ham sal boshqacha ifoda etadi: *"Musulmon o'ikalarida*

cherkov va ibodatxonalar buzilgan bo'lsa, ularni tiklashga izn beriladi". Maxdumi A'zam esa, diniy asosda kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday ziddiyat va nizoning ildizini quyidagi fikr bilan butkul yulib tashlaydi: *"Dunyoda har xil dinga e'tiqod qiladigan, turli millatga mansub insonlar yashaydi. Kimni mukofotlash, kimni jazolashni Allohning O'zi biladi. Shuning uchun boshqa odamlarning urf-odatlari, an'analari, e'tiqodiga bardoshli bo'ling"*.

Mana shu o'g'itlar asosida yashab kelgan xalqimiz bugungi sharoitda ham bag'rikenglik an'analarga sodiqlikni saqlab turibdi. Yurtimizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2274 diniy tashkilot faoliyat ko'rsatayotgani bu fikrning yorqin dalilidir. Bu zaminda 130 dan ziyod millat va elat vakillari baqamti yashab kelyapti. Hammasining e'tiqodi har xil. Masjid va madrasalar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari,

ko'rsatadi, albatta. Qolaversa, shuni ham esga olish kerakki, BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi yalpi majlisida Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan **"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi** bir ovozdan qabul qilingan edi. Ya'ni yurtimizni dunyo davlatlariga o'ziga xos go'zal o'mak va ibrat qilib ko'rsatgan bu hujjat shunday nufuzli tuzilma qarorgohiga mezbonlik qilishga eng haqli mamlakat birinchi o'rinda O'zbekiston ekanini ham namoyon qiladi.

BMT Bosh Assambleyasining bu galgi sessiyasida Shavkat Mirziyoyev buyuk

BMT BOSH ASSAMBLEYASINING BU GALGI SESSIIYASIDA SHAVKAT MIRZIYOYEV BUYUK OLIMLARNING BOY MEROSINI O'RGANISH, ISLOMNING ASL INSONPARVARLIK MOHIYATINI CHUQUR OCHIB BERISH MAQSADIDA 2024-YILI O'ZBEKISTONDA "ISLOM — TINCHLIK VA EZGULIK DINI" MAVZUSIDA XALQARO KONFERENSIYA O'TKAZISH TASHABBUSINI ILGARI SURDI.



O'zbekiston xalqaro islom akademiya-si, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan bir qatorda, pravoslav va protestantlik seminariyalari, 165 ta nasroniy tashkilot, 8 yahudiylk, 6 bahoiylk, bitta krishnaitlik jamoasi, bir buddaviylk ibodatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'rtasida turli darajada aloqalar qaror toptirilgan, peshvolar diniy bayramlarda bir-birini tabriklashi go'zal an'ana-ga aylangan.

O'zbekiston dunyoda diniy ekstremizm, terrorizm va millatchilik tufayli kelib chiqayotgan nizo va ziddiyatlarni hisobga olgan holda, jamiyatda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarini qaror toptirish va mustahkamlash yo'lidan bormoqda. Bu tinch va osuda hayotni ta'minlashga, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Aslida, taraqqiyotning asosi ham jamiyatning osoyishidir. Bunga esa, birinchi navbatda, bag'rikenglik orqali erishiladi.

Yurtimizda bu sohada olib borilayotgan islohotlar dunyo miqyosida munosib e'tirof etilib, diniy bag'rikenglikning namunalari model sifatida baholalanayotgani **O'zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish** to'g'risidagi taklif har tomonlama haqli va asosli ekanini

olimlarning boy merosini o'rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yili O'zbekistonda **"Islom — tinchlik va ezgulik dini"** mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusini ilgari surdi.

Mohiyatan olib qaraganda, bu dastlabki taklifning mantiqiy davomidir.

Bu xususda so'z borar ekan, avvalo, keyingi yillarda O'zbekistonda vijdon erkinligini mustahkamlash, konfessiyalararo bag'rikenglikni yanada barqarorlashtirish yo'lidagi ishlar bilan bir qatorda, dini o'rganish borasida ham katta o'zgarishlar kuzatilayotganini ta'kidlash kerak. Ayniqsa, islom ilmlari rivojiga beqiyos hissa ko'shgan ulug' ajdodlarimiz merosini ona tilimizga tarjima qilish, o'rganish va keng targ'ib etish yo'nalishiga e'tibor nihoyatda kuchli bo'lyapti.

Bizga g'urur bag'ishlaydigan jihat shuki, bobakolonlarimizning ham dunyoviy, ham diniy ilmlar ravnaqi yo'lidagi buyuk xizmatlarini jahon ilmiy hamjamiyati hamisha keng e'tirof etib kelgan. Xorazmiy, Farobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oni, Ulug'bek kabi allomalarni amalga oshirgan kashfiyotlarning in'ikosini bugun ham yaqqol ko'rish mumkin. Ayni paytda har bir musulmon jamiyatida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy singari ulug'la-

rimizning mehnati samarasidan foydalalanilmoqda.

Masalan, Xorazmiyni eslaganda, algoritm yodga keladi. Aniqrog'i, "algoritm" so'zini tilga olgan kishi Xorazmiyni yodga keltirgan bo'ladi. Yoki Mirzo Ulug'bekni xotirlasak, zamonaviy astronomiya beshak uni o'z "ota"laridan deb bilishini ko'ramiz.

Diniy sohani oladigan bo'lsak, bugun turli buz'unchi guruhlariga aynan bizning bir necha asrlar avval yashab o'tgan Moturidiy bobomiz ijodi bilan munosib tarzda ilmiy raddiya beriladi. Yoki islomda Qur'ondan keyin turadigan eng mo'tabar manba haqida so'ralsa, har qanday hurfrik musulmon "Sahihul Buxoriy" asarini tilga oladi.

Yuqorida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilgani ta'kidlandi. Ularning barchasi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Shu tariqa xalqimiz ilmiy dahosining yuksalishida islomning o'rni har tomonlama ochib berila boshlandi. Chunki barcha allomalimiz Qur'oni karimni to'g'ri tushunib, ilhomlangani, hadislar asosida kamolotning oliy cho'qqisiga ko'tarilgani inkor etib bo'lmaz haqiqatdir.

Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni shior qilib olgan O'zbekiston vakum holiday onglarni zararli emas, faydali axborot bilan to'ldirish, islomni niqob qilib olgan to'dalar "mafkrusi"ga qarshi mustahkam immunitet yaratish, ayniqsa, yoshlarni sog'lom fikrlaydigan qilib tarbiyalash kabi ezuq maqsadlarini bosh vazifa etib belgilagan. Buni xalqaro miqyosga olib chiqish yana ham xayrli bo'ladi. **"Islom — tinchlik va ezgulik dini"** mavzusidagi **xalqaro konferensiya** xalqimizning ana shunday intilishlari-ga hamohang anjumdandir.

Ko'plab mamlakatlarda islom sivilizatsiyasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan, lekin halli-hanuz chuqur o'rganilmagan, jahon tillariga tarjima qilinmagan qo'lyozma va toshbosma asrlar bisyor. Ularning nusxalari yo elektron nusxalarini to'plash, tarqatish, targ'ib qilish, kelajak avlodga yetkazish yakka holda amalga oshiriladigan ish emas. Yuqori maqomdagi mazkur konferensiya buning uchun xalqaro miqyosdagi mustahkam platformaga poydevor bo'lishi shubhasiz.

Prezidentimiz mintaqamiz mamlakatlari o'rtasida mustahkamlanib borayotgan aloqalarning ijobiy natijalari haqida to'xtalib, Markaziy Osiyo hamjihatlik yo'lida davom etishi hamda uni tinch va farovon mintaqaga aylantirish bundan keyin ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib qolishini ta'kidladi.

O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganidan buyon tashkilot tuzilmalari ishida faol ishtirok etib kelmoqda. Bunda asosiy urg'u tashqi siyosiy maqsadlar, xususan, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy masalalarga bog'liq sohalariga qaratilayotgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonning mintaqaviy masalalarga oid tashabbuslari ham muhim. Mamlakatimiz BMT orqali mintaqaviy hamkorlik va Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirokchi sanaladi. Umumiy muammolarni hal qilish uchun mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan samimiy muloqot va hamkorlik platformasi yo'lga qo'yilgan.

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqida bildirgan taklif va tashabbuslari, siyosiy doira vakillari va keng jamoatchilikni teran mushohadaga chorlovchi fikrlari yangi O'zbekiston maqsadlari tinchlikparvarlik va hamjihatlikda rivojlanishga xizmat qilishini yana bir bor isbotladi.

Bugun dunyo bo'yicha ziddiyatli holatlar kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatlar va mintaqalarda vujudga kelayotgan hamda yangi paydo bo'layotgan muammolarni yechish bo'yicha siyosiy muloqotga kirishish muhim strategik yo'nalishlardan biri sanaladi. Bunday vaziyatda O'zbekiston ham o'zining tinchlikparvar, pragmatik tashqi siyosati bilan xalqaro munosabatlarda yetakchi davlatga aylanmoqda. Shu kunlarda jahon hamjamiyatining diqqati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan navbatdagi sessiyasiga qaratilgan.

Go'zal SA'DIYEVA,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori

Davlatimiz rahbarining mazkur sessiyada ishtirok etishi hamda mintaqaviy va global ahamiyatga ega tashabbuslarni ilgari surishi do'stona va tinchlikparvar tashqi siyosatimiz mohiyati oldida turgan vazifalarni jahon ommasiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Keyingi yillarda O'zbekiston tomonidan BMT minbaridan turib mintaqaviy va Afg'onistondagi muammolarni hal etish, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish, turizmni faollashtirish va boshqa jabhalardagi ko'p tomonlama hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bir qancha tashabbuslarni ilgari surib kelayotir.

O'zbekiston 1992-yil 2-martda yangi suveren, mustaqil davlat sifatida BMTga a'zo bo'lgan edi. Shundan buyon mamlakatimiz Tashkilot va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan turli sohalarida samarali hamkorlik qilib keladi.

Ahamiyatli jihati shundaki, BMT bilan samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi bosqichi 2017-yildan boshlanib, O'zbekiston tashabbuslari Markaziy Osiyodagi muammolarni yechish bo'yicha o'ziga xos yangi modelning vujudga kelishiga turk bo'lyapti.

Bugun mamlakatimiz BMT Bosh Assambleyasi va ixtisoslashgan tashkilotlari ishida faol ishtirok etmoqda. Xususan, O'zbekiston rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-, 75- va 76-sessiyasida, shuningdek, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasining Oliy darajadagi segmentida ma'ruza qildi. Jumladan, birgina 2018-yilning o'zida O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida olitta rezolyutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi.

"Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izzchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" to'g'risidagi rezolyutsiya mintaqaviy hamkorlikning konseptual asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu rezolyutsiya "Samarqand ruhi" shakllanishiga asosiy poydevor bo'lgan konferensiya bilan bog'liq bo'lib, unda qabul qilingan qo'shma Kommyunikeda O'zbekiston mintaga davlatlari o'rtasida tizimli muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shniqlikni mustahkamlash hamda oqilona murosaga asoslangan hamkorlikning qat'iy tarafdori ekani qayd etilgan edi.

Unga muvofiq, tadbir ishtirokchilari BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga doir maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish to'g'risidagi taklif bilan chiqishgan edi. Ushbu taklifni xalqaro hamjamiyat to'liq qo'llab-quvvatlab, rezolyutsiya loyihasi O'zbekiston tomonidan Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi. Mazkur hujjatni ishlab chiqishda dunyoning yetakchi mamlakatlari faol ishtirok etdi. Toshkent konferensiyasi yakunlari bo'yicha qabul qilingan deklaratsiya o'sha yilning aprel oyida BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik kengashi 72-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida e'lon qilindi.

O'zbekistonning BMT bilan o'zaro hamkorligida diniy bag'rikenglikni ta'minlash va mustahkamlash, yoshlar hayoti bilan bog'liq dolzarb muammolarni hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Prezidentimiz yoshlarni so'nggi yillarda kuchayib borayotgan diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlaridan himoya qilish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratish kerakligini ta'kidlab, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif qilgan edi. Ushbu tashabbus BMTga a'zo 193 davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi.



2019-yilda BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tomonidan tayyorlangan "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" rezolyutsiyasini qabul qildi. Ushbu rezolyutsiya Shavkat Mirziyoyev tomonidan Pekinda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumi doirasida o'tkazilgan uchrashuvda ilgari surilgan edi.

2021-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiya Orol fojiasiga qarshi kurashish uchun nafaqat Orol mintaqasi davlatlari, balki butun dunyo mamlakatlarning diqqati va kuchlarini birlashtirish imkonini berdi.

2022-yilda BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tomonidan 40 ta davlat bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash bo'yicha maxsus rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qulladi. Mazkur rezolyutsiya "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risida" bo'lib, uni ishlab chiqish va ikki mintaqaga muloqotining umumiy yondashuvlari, asosiy prinsiplari va yo'nalishlarini mustahkamlab qo'yish tashabbusi davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yil iyul oyida o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi Toshkent konferensiyasida ilgari surilgan edi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bilan BMTning gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan "BMT ayollar" tashkiloti o'rtasida o'zaro hamkorlik ham samarali kechmoqda.

Joriy yil 19-sentabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi umumiy muhokamalarida ishtirok etdi. Unda mamlakatimiz rahbari global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti — Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorlikni ta'kidlab, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazish, "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni, O'zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish, O'zbekistonda "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish, Afg'onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish uchun maqbul mexanizmlar ishlab chiqish taklif qilindi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda O'zbekiston tomonidan bildirilayotgan takliflar va tashabbuslar BMT rahbariyati va a'zo davlatlar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda. Chunki O'zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslar global tashkilotning yuksak maqsadlariga, jumladan, sayyoramizda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni mustahkamlash bo'yicha Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'liq mos keladi.

TINCHLIK VA FAROVONLIK — TARAQQIYOT IN'IKOSI

Gulbahor DUSHAYEVA,
Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti
tadqiqotchisi

O'zbekiston tashqi siyosatda faollashib bormoqda. Buning yaqqol isboti yurtimizning turli mamlakatlar bilan aloqalari mustahkamlanishi hamda xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki samaradorligida ko'zga tashlanadi.



muammolarini hal etishga, tashkilotning ta'siri va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistondagi keng ko'lami islohotlarni alohida ta'kidlab, jahon va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida hamjihatlik va pragmatik hamkorlik ruhini saqlab qolish, umumiy manfaatlarni mavjud qarama-qarshiliklardan ustun qo'yish, barcha mamlakatlar kuchini birlashtirish zarurligini ta'kidladi.

Kelgusi yilgi Kelajak sammitining BMT Bosh kotibi tashabbusi bilan o'tkazilish dolzarb xalqaro va mintaqaviy rivojlanish



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



TAHLIL VA TAQQOS

Nigoh

YANGI O‘ZBEKISTON

Orolning BESHINCHI “KO‘ZI”



Abduraufof QORJOVOV,
sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Olimlarning qayd etishicha, 21 million yil ilgari, ya'ni kaynozoy davri o'rtalarida Orol Kaspiy dengizi bilan bog'langan. Biroq ming yillar davomida ikki ulkan dengizni o'zaro bog'lab turgan daryolar qurib, bir-biridan ajralib ketgan.

Bu havzaning to'liq shakllanishi kech pleystotsen yoki goltsen boshlarida yuz berdi. Bu esa taxminan 150-100 ming yillarni o'z ichiga oladi. Orol dengiziga faqat ikkita daryo — Amudaryo va Sirdaryo quyiladi. Amudaryo geologik tarixida bir necha marta yo'nalishini o'zgartirib turgan. 10-12 ming yil avval Amudaryo yana g'arb tarafga burilib, Sariqamishga quyilgan va uni ko'lga aylantirgan. Miloddan avvalgi 4 ming yillikdan 1 ming yillikning 1-yarmigacha Amudaryo o'zani hisoblangan O'zbo'ydan Sariqamish ko'li orqali Kaspiy dengiziga suv oqqani aniqlangan. Shundan keyin 4 ming yil avval Amudaryo yana Orolga qaytgan. Bu davrda Sirdaryoning suvi ham shu yerga kelib quyilgan.

Miloddan avvalgi 3,5 ming yilliklarda iqlim qurg'oqlashishi bilan daryo oqimi O'zbo'y bo'ylab kamayib boradi. Shu vaqtlari Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik rivojlanib, kanal va ariqlar orqali daryodan ko'p suv olinishi natijasida Orolga suv yetib borishi pasayadi. O'zbo'y ham qurib, Kaspiyga suv yetmaydi. Orol maydoni qisqaradi.

Mintaqaga ko'chmanchi qabilalar (gunnarlar, effaltlar) hujumi davrida damba va to'g'onlar vayron etiladi. Amudaryo suvi yana Sariqamish ko'lga oqa boshlagan. Shu davrlarda Xorazm vohasining qal'a va to'g'onlari tanazzulga uchragan. Faqat VII-VIII asrlardan Amudaryo deltasini yerlari asliga kela boshladi. XI-XII asrlarda janubiy Orol bo'yida katta voha paydo bo'ldi. Shundan keyingi davrlarda Orol dengizi sathi pasayishi mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy ahvolda o'z ta'sirini o'tkazadi.

Mo'g'ullar bostirib kelishi natijasida Xorazm poytaxti — ko'hna Urganch atrofidagi damba va to'g'onlar vayron etiladi. Bu esa Amudaryo suvining yana Sariqamish chuqurtligiga oqishiga olib keldi. Bu ko'l to'lib-toshib, ortiqcha suvlar O'zbo'y o'zani orqali Kaspiy dengiziga tushadi.

— O'tgan asrning 60-yillarida cho'llar o'zlashtirilishi, sug'oriladigan maydonlar kengayishi Amudaryo bilan Sirdaryodan to'yinadigan dengizimizning qurishi-ga sabab bo'ldi, — deydi O'zbekiston

FA Botanika instituti katta ilmiy xodimi Bekzod Odilov. — Bu hol esa flora va faunaga ta'sirini o'tkazmay qolmadi, albatta. O'simlik va hayvonot dunyosi tarkibida keskin o'zgarishlar yuzaga keldi. Agar Orolbo'yi hududidagi bioxilma-xillikning o'zgarishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng katta talafot Orolning g'arbiy tomonidagi Ustyurt platosida namoyon bo'lganini ko'ramiz. Bu hudud O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston chegarasida bo'lib, 20 million gektarni egallagan. Uning 7 million gektari mamlakatimiz hududida joylashgan va u Qoraqalpog' Ustyurti deb nomlanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asrning 80-yillarida Sharqiy Chink hududida do'lanazor, bedazor, na'matak va yorongulzorlar yastanib yotgan. Mazkur hududda hozir bu o'simliklar yo'q bo'lib ketgan.

1989-yilga kelib, Orol dengizi ikkiga ajraldi. Kichik Orol qo'shni Qozog'istonda, katta Orol esa yurtimiz hududida qoldi. 2000-yillar boshlariga kelib, dengiz suvi sathi 31 metr pasayib, chuqurligi 22 metr bo'lib qoldi. 2001-yilda esa katta Orol dengizi g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'lindi.

Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, Orol dengizining qurigan hududida o'simliklar uchun kamida 40-45 yil vaqt kerak. Lekin shu yillar davomida dengizning qurigan tubidan tuz va chang ko'tarilishi, u yerdagi aholi ijtimoiy-iqtisodiy holati yomonlashishi kabi jarayonlar sodir bo'ldi.

1,7 million gektar maydondagi yashil hudud

Mamlakatimiz hududining 80 foizi cho'l va yarim cho'llardan iborat. Hozir qariyb 10 million gektar yaylov tubdan yaxshilanishga muhtoj bo'lsa, ko'chadigan qumlar qariyb 1 million gektar maydonni egallaydi va uning ikki yuz ming gektari so'nggi vaqtda sug'oriladigan yerlar atrofida paydo bo'lgan. Keyingi davrda Orol dengizi suvining qurishi tufayli mamlakatimizda yana qo'shimcha 3 million gektardan ortiq maydonda Orolqum cho'li paydo bo'ldi. Natijada ushbu mintaqada ekologik muhit yomonlashib, cho'llanish jarayoni yanada kuchaydi va ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Mutaxassislar fikricha, ayni keza ekologik jihatdan Orolni avvalgi holatiga qaytarishning iloji yo'q. Bunday sharoitda yagona yo'l borini asrab qolish, fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

— O'zbekiston ana shu yo'nalishlardagi maqsad-vazifalar bo'yicha muhim takliflarni BMTning Bosh Assambleyasi sessiyalarida, xalqaro sammitlarda ilgari surib keladi, — deydi Ro'za Balliyeva. — Xususan, 2020-yilning 23-sentabr kuni davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida nutq so'zladi hamda global iqlim o'zgarishlari va Orolbo'yi hududidagi vaziyatga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratdi. BMT Bosh Assambleyasining mintaqani ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish haqidagi maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi. 2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi yalpi majlisida Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi.

Mamlakatimizda mazkur hujjat ijrosini ta'minlashga qaratilgan "Yo'l xaritasi" belgilab olingan. Uning doirasida bugungi kunda 312 milliard so'm, 22,2 million dollar va 6 million yevro ajratilgan 71 ta tadbir, shuningdek, qiymati 1,9 trillion so'mlik 65 ta ustuvor innovasion loyihani amalga oshirish ishlari davom ettirilmogda. Ayni keza bu borada 230 ta loyihaviy taklif mavjud, ularning umumiy qiymati 210 million dollarni tashkil etadi.

Yurtimizda mavjud imkoniyatlarga tayangan holda amaliy ishlar qilinmogda. Bunda asosiy e'tibor Orol dengizining

“BALIQCHI BOBOLAR OROLNING TO'RTTA “KO‘ZI” BO‘LGAN DEYISHSA, AYNi AVLOD VAKILLARI HOZIRGI KUNDA UNING BESHINCHISI HAM BOR, DEYISHLARIDA HECH BIR MUBOLAG‘A YO‘Q. BU — OROL TUBIDA TOBORA KENGAYIB BORAYOTGAN O‘RMONZORLARDAN IBORAT YASHIL HUDUDLAR. ULAR EKOLOGIK FOJIA TA‘SIRINI KAMAYTIRISH, ODAMLAR HAYOTINI YAXSHILASH VA ORZU-NIYATLARINING AMALGA OSHISHIGA XIZMAT QILISHI BILAN O‘TA QADRLI, KO‘Z QORACHIG‘I KABI AZIZDIR.

qurigan tubidan millionlab tonna chang va zaharli tuz ko'tarilishining oldini olish uchun sho'rga chidamli o'simliklar ekishga qaratilaypti.

— 2018-2022-yillar davomida dengizning suvi qurigan qismida 1 million 600 ming gektardan ortiq yashil qoplama barpo etildi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi direktori Nizomidin Bakirov. — Buning



uchun saksovu, qorabo'roq, qandim, cherkez kabi cho'l o'simliklarining qariyb 6 ming tonna urug'i ekildi. Bu ishlarda 4 mingdan ziyod ishchi-xodim qatnashib, 1 ming 600 ta texnika, samolyotlar jalb etilgan.

Masalan, 2021-yilda Orol dengizi qurigan hududining 375 ming gektarida o'rmonzor barpo etilishi rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 458 ming gektar maydonda saksovu hamda boshqa cho'l o'simliklarining urug' va ko'chatlari qadaldi.

2022-yilda esa 107 ming gektarda saksovu va boshqa cho'l o'simliklaridan yashil qoplama barpo etildi. Jami 590,3 tonna, shundan mahalliy aholi tomonidan 391 tonna cho'l o'simliklari urug'i jamg'arildi, 100 gektar saksovu va boshqa o'simliklardan niholxonalar barpo qilindi hamda bu tadbirlarni bajarishga 635 nafar ishchi-xodim, yuqori umumiy 250 ta traktor va 2 ta AN-2 samolyoti jalb etildi.

2023-yil bahor mavsumida 128 ming gektarda yashil qoplama barpo qilindi. Ular yana 4-5 yilda quyug' o'rmonzorga aylanadi. Joriy yilning kuzgi mavsumida bu ishlar yana davom ettiriladi.



rilishi natijasida joylarda sun'iy ko'llar paydo bo'ldi, ular atrofida qamishzorlar vujudga keldi, daraxt va butalar o'sa boshladi. Qumliklardagi saksovu va boshqa cho'l o'simliklaridan iborat maydonlar ular bilan uyg'unlashib cho'l ekotizimlari tiklanyapti, yovvoyi hayvonlar va qushlarni jalb etishga, shu yerda yashashga, in qurishga va ko'payishga sharoitlar yaratyapti.

2018-yil 27-noyabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi qarorgohida nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham tarixiy voqea yuz berib, BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheerlikli trust fondi tashkil etildi. Mazkur fond Orolbo'yidagi aholi turmush faoliyati bilan bog'liq tibbiy, iqtisodiy taraqqiyot, ekologik, ijtimoiy himoya va boshqa sohalariga doir muammolarini hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlash, O'zbekiston hukumati, BMT agentliklari, donorlik hamjamiyatlari sa'y-harakatlarini birlashtirish orqali mintaqaning rivojlanishiga birgalikdagi yordamni ta'minlash, uning rivoji uchun texnik hamda moliyaviy resurslar safarbar qilish kabi ishlarni amalga oshirib kelmogda.

Shu yil boshiga qadar jamg'arma strategiyasi doirasida Orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq, turli loyihalarni moliyalashtirish uchun 244 million dollarga yaqin mablag' jalb qilingan. Shu bilan birga, jamg'arma tomonidan 5 ta qo'shma dastur moliyalashtirildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, o'rmon maydonini kengaytirish borasida ham ustuvor vazifalar ko'zda tutilgan. Respublikamizning o'rmon bilan qoplanganlik darajasini 8,1 foizga, Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 1,9 million gektargacha yetkazish, uning qurigan tubida qo'shimcha 200 ming gektar yashil maydon tashkil etish maqsad-vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari va haroratning ko'tarilishiga qarshi chora sifatida jami 400 ming gektar maydonda yashil qoplamalar — himoya o'rmonzorlari barpo etiladi.

Strategiyada belgilangan vazifalarga ko'ra, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 444 ta yashil bog' barpo etiladi. Buning uchun barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududida "yashil bog'lar" yuzaga keladi. Bu borada, ayniqsa, yirik sanoat korxonalari zimmasiga katta vazifalar yuklangan. 112 ta yirik ishlab chiqarish korxonasi uch yil davomida 30 million tup ko'chatdan iborat "yashil belbog"lar barpo etishi belgilangan.

Hamkorlik istiqbollari

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining shu hafta bo'lib o'tgan 78-sessiyasidagi nutqida ham global muammo bo'lgan Orol fojiasini oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari doirasida harakat qilayotgani, so'nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektarda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklardan iborat yashil hududlar barpo etilgani, bu sa'y-harakatlarimizni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning

qo'llab-quvvatlashi juda muhimligini bildiradi.

Kutilayotgan ekologik muammolarga doir misol va fikrlarga e'tibor qaratdi:

"Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim daraja ko'tariladi. Bu — dunyodagi o'ttacha isishdan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foiz qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foiz, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foiz kamayishi kutilmogda.

Agar o'z vaqtda ta'sirchan choralarini ko'rmasak, ushbu muammolar oqibatlarini mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, biz BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimini ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlaymiz. Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "BMT — suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdorimiz".

Ana shu masalalarni hamjihatlikda hal etish maqsadida BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi va uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilish taklif etildi.

Haqiqatdan, Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib, suv resurslariga ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. BMT ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zidayoq mintaqadavlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yilliga 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmogda.

Prezidentimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining o'tgan hafta Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan majlisidagi nutqida shunday fikrlarni bildirar ekan, bularning barchasi Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi doirasida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlagan edi. Bu masalalarning barchasini kompleks ko'rib chiqish Markaziy Osiyo mamlakatlari-da suv resurslari, energetika, ekologiya va iqtisodiyot vazirlarining doimiy uchrashuvlari bo'yicha mintaqaviy platformani ta'sis etishni taqozo qiladi.

Qissadan hissa shuki, baliqchi bobolar Orolning to'rtta "ko'zi" bo'lgan deyishsa, ayni avlod vakillari hozirgi kunda uning beshinchisi ham bor, deyishlarida hech bir mubolag'a yo'q. Bu — Orol tubida tobora kengayib borayotgan o'rmonzorlardan iborat yashil hududlar. Ular ekologik fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini yaxshilash va orzu-niyatlarining amalga oshishiga xizmat qilishi bilan o'ta qadrli, ko'z qorachig'i kabi azizdir.



ILM-FAN YUTUQLARI

Boshlanishi 1-betda

Tabiiyki, har qanday loyiha yoki ixtiro qandaydir muammoga yechim sifatida o‘ylab topiladi. Har bir hududda o‘ziga yara-sha muammolar mavjud. Deylik, ekologiya, energetika va boshqa sohalar. Yosh-lar esa o‘zi yashayotgan muhitdan ke-lib chiqqan holda, kamchiliklarni bartaraf etishga doir loyihalarini taqdim etishi mum-kin. Ularning masalaga kreativ yondashuvi orqali ushbu muammolarga yechim topila-di. Ilmiy loyihalarni moliyalashtirishga qa-ratilgan tanlovlar esa ana shu yechimning

shunchaki qog‘ozda qolib ketmay, amali-yotda joriy etilishini ta‘minlayapti.

Aslida, g‘oyasi bor yigit-qizga ko‘mak berishning eng yaxshi yo‘li uni zarur mab-lag‘ bilan ta‘minlashdir. Qolaversa, g‘oya asosidagi loyihalar moliyalashtirilsa, ilmiy izlanishlar jamiyatga naf keltiradi. 2018-yildan boshlab ilg‘or xorijiy tajriba asosida raqobatga asoslangan, iqtisodi-yot tarmoqlari ehtiyojiga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi mexanizmi joriy etilgan edi. Bu boradagi islohotlar natijasida 4 yilda 900 ga yaqin loyiha moliyalashtirildi.



ELEKTROTRAKTOR YARATILDI

yoxud ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi samaralari

TUZLI QUYQALAR ZARAR EMAS, FOYDALI MAHSULOTGA AYLANDI

Suv resurslarining ifloslanishi va bu-zilishi turli organik, noorganik, mexanik, bakteriologik va boshqa moddalar to‘pla-nishiga olib keladi. Qolaversa, suv tarkibida kislorodning kamayib, yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi bakteriyalar ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bunday salbiy oqibatlarning oldini olishda sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi suvlarni tozalash usullarini yanada takomillashtirib, ularni qayta ishlash talab etiladi.

Sanoat chiqindilarining atrof-muhitga zararli ta‘sirini kimyo texnologiyalari so-hasida faoliyat yuritayotgan, ushbu yo‘na-lish bo‘yicha tahsil olayotganlar hammadan ko‘p anglaydi. Chiqindilarni qayta ishlash orqali mana shu muammoni bartaraf etish



barobarida, iqtisodiy foyda olish ham mum-kin. Jizzax politexnika instituti magistri Zi-



Uzumzor, intensiv bog‘lar va kichik tomo‘rqalarda katta texnikalarning erkin harakatlanishi juda qiyin. Shu bois, bunday joylardan yuklarni olib chiqish, hosil yig‘ib olishda asosan, ishchi kuchi talab qilinadi. Katta maydonni egallagan bog‘larda yuk-lamalar yanada ortadi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi-ni mexanizatsiyalash muhandislar instituti” milliy tadqiqot universiteti magistri Akbarali Turdiyev robototexnika hamda elektronika

sohalariga katta qiziqish bilan qaraydi. U qishloq xo‘jaligi texnikalarini sun‘iy intellekt bilan bog‘lash hamda fermer va dehqonlar xarajatini kamaytirib, daromadini oshirishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalar ustida ish olib borib, haydovchisiz elektrotraktor yaratdi. To‘laqonli sun‘iy in-tellekt bilan jihozlangan qurilma turli xildagi yuklar, hosilni uydan turib ham boshqa joy-ga ko‘chirish imkoniyatini beradi.

— Elektrotraktor 4 tonnagacha yukni tomo‘rqacha ichidan hosil yig‘iladigan maydon-gacha muammosiz olib chiqishga yordam beradi, — deydi Akbarali Turdiyev. — Tabiiyki, dala maydonlarida turli to‘siqlar bo‘lishi mumkin. Bunday vaqtda qurilmaning o‘zi xavf tug‘diruvchi vositalarni aniqlaydi va avtomatik ravishda to‘xtaydi. Agarada bosh-qaruvchi xavflarni chetlab o‘tishni buyursa, u harakatda davom etadi. Ishlab chiqilayotgan dasturiy ta‘minotga ko‘ra, texnologiya 178 ta turli detalni tanib, aniqlay oladi. Elektrotraktor analoqlaridan arzon va sifatli. O‘rganishlar-

ga ko‘ra, O‘zbekistonga kirib kelayotgan Xi-toyning sun‘iy intellekt bilan jihozlangan elek-trotraktori narxi deyarli 89 ming dollarga to‘g‘ri keladi. Bu narx fermerlarimiz uchun qimmat-lilik qiladi. Biz esa qurilmaning turli versiyalari uchun 88 million so‘mdan 180 million so‘mga-cha narx belgiladik. Qolaversa, mahalliy tex-nika ko‘plab afzalliklari bilan turdoshlaridan ajralib turadi.

E‘tiborlisi, elektrotraktor maxsus beril-gan koordinatalar yordamida yo‘llarni o‘zi tanlagan holda harakatlanadi. Agar xaritalar orqali yo‘llar aniqlanmagan bo‘lsa, qurilma boshqaruvchiga xabar beradi. Boshqaruvchi maxsus pul’t orqali ana shu yo‘llarni qurilma xotirasiga saqlaydi. Shuningdek, maxsus ilova orqali ayrim vazifalarni birliktirish yoki yangi funksiyalarni qo‘shish ham mumkin.

Zamon talablariga mos takomillashgan texnikalar keng joriy qilinsa, katta samara beradi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga e‘tibor ortgan, texnika va texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda bu juda muhim. Loyiha

chiqariladi. Bu jarayonda quvurlarni doi-miy ravishda suv bilan sovitishga to‘g‘ri keladi. Sovitish tizimidagi suv quvurlar-ning tuz quyuqlari bilan to‘lib qolishiga sababchi bo‘ladi. Hozirda loyiha “Jizzax plastmassa” AJ zavodida qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotchining aytishicha, quyuqalar-ni tozalab tushgan suyuqlik, ya‘ni chiqindi suv 28-35 daraja sovuq haroratda muzla-maydigan suyuqlikka aylanadi. Aynan shu jihati beton pishiqilgini oshirish va qishda ham beton ishlab chiqarish uchun qulay hi-soblanadi. Qolaversa, suyuqlik bilan ishlov berilganda hosil bo‘lgan mahsulot o‘zining tarkibida kalsiy va magniy mikroelementla-rini saqlashi tufayli undan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mikroo‘g‘it sifatida foydalanish ham mumkin. Bir qa-rashda juda oddiydek ko‘ringan yondashuv chiqindilardan samarali foydalanish imkon-i beradi.

TURDOSHLARIDAN 10 BAROBAR ARZON

muallifining ta’kidlashicha, eski modeldagi traktorlar ko‘p yoqilg‘i talab qiladi. Elektro-traktor esa o‘zini o‘zi quyosh panellari orqali quvvatlanitira oladi.

Sun‘iy intellektga asoslangan texnika-ning inson resursiga ta’siri bor. Ammo uning ustunlik tomoni ish samaradorligini oshira-di, dehqonning og‘irini yengil qiladi. Texnika asri sodda, zahmatkash qishloq xo‘jaligi xodimlari oldiga ham katta vazifalar qo‘y-moqda. Mazkur texnika ham traktor hay-dovchisi o‘z kasbini transformatsiya qilishi, sun‘iy intellekt orqali ishlaydigan traktorni boshqarish ko‘nikmasini egallashni talab qiladi. Hozirda dastlabki prototip ishlab chiqilib, sinovdan o‘tgan.

Aytish joizki, bugun yurtimiz qishloq xo‘-jaligi rivojlanib bormoqda. Bunda xalqimizning dehqonchilik madaniyati va boy tajribasidan unumli foydalanilayotgani, sohada ilm-fan va ishlab chiqarishni o‘zaro uzviy bog‘lab, erkin bozor munosabatlarga mos tamoyillar joriy etilayotgani qo‘l kelmoqda.

ISH JARAYONIDA MUAMMO YUZAGA KELGANDA YANGI G‘OYA PAYDO BO‘LADI

Bejiz, bu fikrni keltirmadik. Buxoro muhandislik texnologiya instituti menejeri Samadbek Allamurodov mashinaning motor qismidan ajraladigan moy chiqindisi va gaz kondensati orqali ishlaydigan gorelka yaratdi. Ushbu startapi bilan u “Mirzo Ulug‘bek vorislar” respublika ko‘rik-tanlovida g‘olib bo‘lgan. Loyihaning yaratilishiga esa, hayotida duch kelgan muammo sabab bo‘lgan.

— Qish oylarida tabiiy gaz aksariyat hududlarda taqchil bo‘ladi, — deydi Samadbek. — Issiqxona tashkil qilib, ekinlar parvarishini yo‘lga qo‘yganimiz. Katta hosildan umid qilib turgan vaqtimiz tabiiy gaz muammosi kuzatildi. Ekinlarni to‘g‘ri parvarish qilish va yoqilg‘ini isrof qilmaslik uchun isitishning boshqa



manbalarini qidira boshladik. Iloji boricha arzon va xavfsiz manbaa topish haqida juda ko‘p o‘yladim. Bir kuni mashinadan chiqqan moy chiqindisiga ko‘zim tushdi. Shunda xayolimdian bu chiqindidan ham nimadir qilish mumkindir, degan fikr o‘tdi. O‘sha chiqindiga bir nechta moddalarni aralashtirib, sinab ko‘rdim. Gaz kondensati eng maqbul tanlov bo‘ldi va mana shu aralashma bilan ishlaydigan gorelka loyihasini yaratdim.

Foydalaniladigan yoqilg‘i turi, asosan, ortiqcha chiqindi mahsulotidan olinishi hamda bu yoqilg‘idan boshqa maqsadlarda foydalanib bo‘lmagiligi loyihaning dolzarblik darajasini yanada oshiradi. Ammo shuncha chiqindini, ya’ni xomashyoni qayerdan olish mumkin, degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Loyiha rahbarining o‘rganishlariga ko‘ra, birgina Buxoro

tumanida 20 ming xonadon suyuqlirilgan gazdan foydalanadi. O‘rnatilgan tartib bo‘yicha o‘rtacha bir oyda bir marotaba ballonlar gaz bilan to‘ldiriladi. Har bir bo‘sh ballonda 1 litrdan gaz kondensati qolib ketar ekan. Hisoblab ko‘radigan bo‘lsak, bitta tumanning o‘zida bir oyda 20 ming litr gaz kondensati chiqindi sifatida qoladi. Moy almashitirish shoxobchalari esa tuman kesimida o‘rtacha 20 ta bo‘lib, har bir shoxobchaga bir kunda 5 ta mashina keladigan bo‘lsa, 20 litr moy ajralib chiqadi. Demak, bir oyda 12 ming litr moy ajraladi. Anglash mumkinki, chiqindi xomashyo vazifasini bajaradi.



DOVON YO‘LLARI O‘ZINI O‘ZI ENERGIYA BILAN TA‘MINLAYDI



Energiyaga bo‘lgan talabning ortishi, energiya narxlarining doimiy oshib bo-rishi zamonaviy, ekologik toza, tejamkor texnologiyalar hamda qayta tiklanuvchi manbalardan samarali foydalanishni taqo-z etmoqda. Farg‘ona politexnika instituti energetika fakulteti talabasi Kamoliddin Ni-shonov tog‘li hududlar avtomobil yo‘llarida-gi shamoldan foydalanib, elektr energiyasi olish bo‘yicha o‘z loyihasini ishlab chiqdi.

Shamol havo massasining harakati tu-fayli hosil bo‘ladi, abadiy quvvat manbai hi-soblanadi. Mutaxassislar fikricha, shamol-dan elektr energiyasi olish uchun uning o‘rtacha tezligi soniyasiga 3 metrdan yuqori bo‘lishi kerak. Shundagina hosil bo‘lgan quvvatlar akkumulyatorda to‘planadi va ularni tarmoqga uzatsa bo‘ladi. Yurtimizda shamol sekundiga 3 metrdan 5 metrgacha

esadigan hududlar mamlakatimiz umumiy maydonining 20-25 foizini, 5 metrdan 6,5 metrgacha va undan yuqori tezlikda shamol esadigan hududlar esa 70-75 foizini tashkil qiladi. Demak, shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatimiz keng.

— Avtomobil yo‘llarining o‘rtadagi beton qismiga shamol generatorlari gorizontali o‘rnatiladi, — deydi Kamoliddin Nishonov. — Shamol parraklari avtomobilning ikki tomonlarga yurishi hisobiga ishlaydi. Ya’ni avtomobil o‘tgach, uning ortidan keladigan shamol kuchi harakatga kelib, elektr quvvati ishlab chiqaradi. Bu generatorlar tog‘-li hududlarda qo‘llaniladi. Negaki, aynan shunday hududlarda shamol ko‘p bo‘ladi. Bu uskunalar shamol tezligi soniyasiga 5 metr esa boshlagach, quvvat ishlab chiqa-rishni boshlaydi. Kun davomida bu quvvat inventarlar orqali akkumulyatorga yig‘iladi. Kechki payt esa yo‘llardagi chiroqlar yo-qilib, atrofini yoritadi.

Elektr tarmoqlari o‘tkazish qiyin yoki qimmat bo‘lgan hududlar ham bor. Startap egasining fikricha, aynan shunday hudud-larda mazkur generator elektr toki bilan ta‘minlashda yaxshi tanlov bo‘ladi. Tog‘li hududlarda elektr tarmoqlarini olib borish iqtisodiy tomondan juda qimmatga tushadi. O‘sha joylar yo‘llarida uchraydigan xavfli bu-rilishlar, elektr bilan ta‘minlanmagan qishloq,

bekatlar, yo‘l yuzidagi oshxonalarni yoritish-da shamol generatoridan foydalanish mum-kin. Yana bir jihati, dovon yo‘llarida tun-u kun mashina qatnovi to‘xtamaydi. Demak, elektr uzilib qolmaydi yoki quvvat yig‘ib olish qiyin bo‘lmaydi. Shuningdek, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmaydi, yoqilg‘i yoki suv sarfini talab qilmaydi.



Muqobil energiyalar tabiatning insonga in‘om etgan bitmas-tuganmas va ekologik toza resurslari hisoblanadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, yerdan 100-150 metr balandlikdagi shamolning energiya quvvati hozirgi vaqtda ishlatilayotgan elektr energiyasi quvvatidan 30 marotaba katta ekan. Texnika taraqqi-yoti yutuqlaridan foydalanib, ilmiy salohi-yatimizni ishga solsak, mana shu quvvat insoniyatga beminnat xizmat qiladi.

Ilm egallash — igna bilan quduq qazish-dek gap. Shu bois, bu yo‘lni tanlaganlardan katta mehnat talab qilinadi. Uning mashaqa-qatiga chidash, natijasini kutish uchun metindek sabr, iroda zarur. Mana shu zah-matdan qochmagan yoshlar innovatsiya, g‘oya va yechimlarning bitmas-tuganmas manbai sanaladi. Mamlakat kelajagini ana shunday fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ta-fakkurga ega, ilg‘or g‘oyalarni hayotga tatbiq eta oladigan yetuk yoshlar yaratadi. Jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida qaralayotgan qatlarning faolligi har qachongidan muhim. Hozircha faqat sinov tariqasida ishlab chiqarilgan yoki sanoliq joy-lardagina amaliyotga joriy qilingan yangicha yondashuvlar kelgusida turli sohalarga keng tatbiq etilib, o‘z samarasini beradi, albatta.

Feruza JO‘RAYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumanida oddiy oilada tug‘ilganman. Otam davlat xizmatchisi, onam esa shifokor. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bakalavriatni tamomladim va shu oliygohda magistraturada tahsil oldim. Xorijda o‘qishni orzu qilardim. “El-yurt umidi” jamg‘armasi tanlovlarida ikki yil muvaffaqiyatsizlikka uchradim. Raqobatchilarim doim mendan ustun edi. Tanlov komissiyasining subhat jarayonida menga nisbatan bildirgan tanqidiy fikrlaridan tushkunlikka tushmadim. Aksincha, keyingi tanlovlarga puxta tayyorgarlik ko‘rdim. Nihoyat, 2023-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasining 1-stipendiya tanlovida g‘olib bo‘ldim. Men AQSHning nufuzli Michigan universitetining 40 000 dollarlik grantini yutib oldim. Hozir jamg‘arma stipendiatni sifatida Michigan universitetida “Oliy ta’lim boshqaruvi” yo‘nalishida magistraturada tahsil olyapman.



Michigan men tanlagan mutaxas-sislik bo‘yicha dunyo reytingida top-50 talik universitetlar ro‘yxatiga kiradi. Qolaversa, xorijlik talabalarga katta miqdorda grant berishi, byudjetining kattaligi shu universitetni tanlashimga sabab bo‘lgan.

Mamlakatimizda OTMlarga moli-yaviy erkinlik bosqichma-bosqich berib borilyapti. Bu degani, ta’lim bozorida faqat kuchli raqobatga chidagan OTM-gina yashab keta oladi. Abiturientlar-ni jalb qilishda oliygohda talabalar-ga yaratilgan imkoniyat, professor-o‘qituvchilar tarkibi va talabalarning xalqaro almashinuv jarayonida qat-nasha olishi kabi omillar bo‘lishi ke-rak. Almashinuv jarayonida nafaqat o‘zimizning talabalarni xorijiy universi-tetlarga yuborishimiz, balki chet elning ilm olish istagidagi yoshlarini endi O‘z-bekistonga jalb qilishimiz lozim, ya’ni

homiylilik xayriya mablag‘larini jalb qilish, Michigan universiteti tajribasi-dan kelib chiqqan holda, Endowment fond mablag‘larini shakllantirish uchun mikrobiznes faoliyatiga ruxsat berish, Endowment fondiga xayriya mab-lag‘larini yo‘naltirgan tadbirkorlik sub-yektlariga soliq imtiyozlari taqdim etish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Prezidentimiz bilan uchrashish baxti bizga nasib qildi. Ammo uchra-sha olmagan tengdoshlarim ham bor. Ular davlatimiz rahbariga minnatdor-lik tuyg‘ularini yetkazishimizni so‘radi. Zero, xorijning eng nufuzli universi-tetlarida tahsil olishimiz uchun bar-cha shart-sharoit yaratib berilgani har birimizning qalbimizda minnatdorlik, faxr tuyg‘ularini uyg‘otmoqda.

Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda biz hozir hech narsani o‘ylamasdan o‘qiyotganimiz, bor

“PREZIDENTIMIZ BILAN UCHRASHISH BAXTI BIZGA NASIB QILDI. AMMO UCHRASHA OLMAGAN TENGDOSHLARIM HAM BOR. ULAR DAVLATIMIZ RAHBARIGA MINNATDORLIK TUYG‘ULARINI YETKAZISHIMIZNI SO‘RADI. ZERO, XORIJNING ENG NUFUZLI UNIVERSITETLARIDA TAHSIL OLISHIMIZ UCHUN BARCHA SHART-SHAROIT YARATIB BERILGANI HAR BIRIMIZNING QALBIMIZDA MINNATDORLIK, FAXR TUYG‘ULARINI UYG‘OTMOQDA.

ta’lim eksportini boshlashimiz zarur. Bunda, albatta, OTMlar aynan men o‘rganayotgan soha mutaxassislarga ehtiyoj sezadi.

Men jamg‘arma stipendiatni sifati-da faqatgina ishonchni oqlash degan balaqandparvoz so‘zlar bilan cheklanib qolmoqchi emasman. Xorijdagi nufuz-li universitetda tahsil olishim uchun sarflanayotgan mablag‘ni ortig‘i bilan qaytarish, kamida 10-15 barobar qiy-matdagi natijadorlikka erishish niya-tidaman. Masalan, o‘zim faoliyat yu-ritadigan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga xorijiy talabalarni jalb qilish, loyihalar tayyorlab, yangi fan dasturlarini kiritish misolida islohotlar-ga hissamni qo‘shaman.

Oliy ta’lim muassasalarining muvaf-faqiyatga erishgan bitiruvchilari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali moliyaviy mustaqillikni ta‘min-lash chora-tadbirlarini belgilashni niyat qilganman. Bunda yuksak yutuqlar-ga erishgan nomdor bitiruvchilarning

kuchimizni mukammal ilm olish, yan-giliklarni o‘rganishga, innovatsiyalarni yurtimizga olib kirish rejalarga qarat-ganimizni ham bildiridik.

Prezidentimiz doimo najot ilmda ekanini ta’kidlaydi. Faqat bilimli xalq, mamlakatgina yuksak marrani zabt etishini ko‘rib, bejiz ilgma bunday e’ti-bor berilmayotganini chuqur angladim. Men o‘zim uchun yo‘l xarita tuzdim, o‘qishim tugashini kutib o‘tirmay, hozir-danoq Toshkent davlat iqtisodiyot uni-versiteti va Michigan universiteti o‘rta-sida ko‘prik bo‘lish harakatidaman. Ikki universitet o‘rtasida qo‘shma dastur, ya’ni talaba va professorlar almashi-nuvini yo‘lga qo‘yishni rejalashtirgan-man. Bunda men e’tibor qaratadigan jihat O‘zbekistondagi OTM talabalarini 1-semestr AQSH universitetida o‘qib kredit to‘plashi bo‘lsa, qisqa muddat-li kurslar orqali xodimlar va ustozlar malakasini oshirish hamda pul to‘la-nadigan amaliyotga talabalarni jalb etish bo‘ladi.

Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligiga

Buyuk alloma bilan

UCHINCHI RENESSANS SARI



Minhojiddin MIRZO,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi rahbari,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Olamshumul kashtiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olim, ilk Uyg'onish davrining yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida 2022-yil 25-avgust kuni Prezidentimizning “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida”gi qarori qabul qilinishi buyuk ajdodimizga chuqur ehtirom sifatida tarixiy qadam bo'ldi.

Ajdodlarimiz qoldirgan yuksak ilmiy-ma'naviy merosni har tomonlama tadqiq qilish yangi O'zbekistonning irfoniy va ruhiy asoslarini mustahkamlash, yangi tadqiqotlar va ilmiy maktablarni yaratish va rivojlantirishning muhim onili bo'lib xizmat qiladi.

Kuchli tafakkur egasining dunyoqarashi, ilmi nafaqat o'z elini yuksak darajalarga olib chiqadi, kerak bo'lsa, jahon tarixini ham o'zgartirib yuboradi. Abu Rayhon Beruniy ana shunday beqiyos bilim sohibi sifatida millatimizning ulug' siymolaridan. Zero, dunyoviy ilm rivojiga ulkan hissa qo'shgan, borliq haqidagi eng sof va eng tiniq haqiqatlarni tilga kiritgan alloma bamiqli porlagan quyosh kabi asrlar osha biz tomon nur sochib turibdi. Yangi O'zbekiston g'oyasi aynan mana shunday nurlardan kuch olib oldingda intilmoqda. Chunki Sharq Renessansi davri mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy merosini mukammal darajada o'rganish mamlakatimizda zamonaviy ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot tarixi tahlili ko'rsatadiki, insonning shakllanishida muhit, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Abu Rayhon Beruniy 973-yil 4-sentabrda Xorazmning qadimgi Kot shahrida tug'iladi. Kot shahri X asrda afriqiy xorazmshohlar sulolasi poytaxti va O'rta Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri edi. Xorazm bilan Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Kavkaz va Sharqiy Yevropa o'rtasida savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlangandi. Musulmon Sharqining mashhur olimi Abdulkarim as-Sam'oni “Kitob al-ansob” (“Nasablar kitobi”) asarida bunday yozadi: “Beruniy degan nisba Xorazmning tashqari qismiga oiddir. Kimki shahardan tashqarida tug'ilgan bo'lsa, bunday odamni ‘falanchi beruniy’ deydlar. Munajjim Abu Rayhon shunday nisba bilan mashhurdi”.

Beruniyning yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi, qobiliyati kuchli bo'lgan. Tarixchilarning ta'kidlashicha, o'sha vaqtda Xorazmda fanning turli sohalarida shuhrat qozongan yuzlab olimlar yashagan. Beruniy, shubhasiz, mazkur olimlarda o'qib, ta'lim olgan bo'lishi kerak. U fanning deyarli hamma sohalar bilan shug'ullangan. Ona tilidan tashqari yana bir qancha — arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini puxta egalladi. Keyinchalik olimning Hindistonda bir muddat hayot kechirishi unga hind madaniyati bilan chuqur tanishish va sanskrit tilini o'rganib olish imkonini berdi. Qadimgi yunon klassik ilmi bilan shug'ullandi. Astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix va etnografiya, falsafa va filologiya sohalarini chuqur bilgan yirik olim bo'lib yetishdi.

Beruniy shoir va adabiyotshunos ham edi. U zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oladi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya va matematikaga oid bir qancha asar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. U Beruniyning Yevklid geometriyasi va Ptolemeyning astronomik ta'limoti bilan tanishtiradi. Ustoiz bilan shogird o'rtasidagi do'stlik uzoq vaqt-largacha davom etadi. Beruniy ustozlari



ning nomini hamma vaqt zo'r hurmat bilan tilga oladi. Umuman, Beruniy ilmiy masalalar, tarixiy voqe'liklar va zamon-doshlariga nisbatan baho berishda o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu sabab hayotda ko'p aziyatlar chekkan, og'ir turmush kechirgan, ammo nechog'liq mashaqqatli bo'lmagan, oliy maqsad sari intilishda davom etgan, ishonch-e'tiqodidan aslo chekinmagan.

Abu Rayhon Beruniyning ilm ummoni nechog'liq poyonsiz ekanini uning ulkan qomusiy olim sifatida yaratgan asarlari yaqqol ko'rsatib turibdi. Falsafa ilmi bilimdoni bir vaqtning o'zida astronom, astrolog, matematik, geolog, geograf, biolog, o'lkashunos, o'simlikshunos, ma'danshunos, tarixchi, manbashunos, dinshunos, adabiyotshunos, jamiyatshunos, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo'lgan. Shu bois, akade-



mik I. Krachkovskiy so'zi bilan aytganda, “Beruniyning shug'ullangan sohasini sanashdan ko'ra, shug'ullanmagan sohasini sanash osonroqdir”.

Manbalarga ko'ra, olim 150 dan ortiq asarda jamlangan izlanishlardan iborat ilmiy meros qoldirgan. Bugunga qadar uning qo'lyozma ko'rinishidagi 30 dan ortiq kitobi yetib kelgan, xolos.

Ulug' olimning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Saydana”, “Astronomiyaga kirish”, “Mas'ud qonuni”, “Geodeziya”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko'paytirish asoslari”, “Ptolemey “Almagest”ining sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to'g'ri javoblar”, “Farg'oniy elementlariga tuza-tishlar”, “Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma'lumotlar”, “Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalari” singari asarlari jahon fani va madaniyati yuksalishida ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Xususan, mazkur asarlar musulmon Sharq madaniyatining so'ngi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bayhaqiq, Shahrizuriy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy kabi mashhur olimlarning arab va fors tillarida yozilgan asarlarida Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi.

XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib loann Bar Ebrey (1226-1286) Beruniyga bunday baho beradi: “O'sha o'tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o'tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'tmish imlarni shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo'lib, bu sohada qator muhim kitoblarni yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san'atini o'rgandi va ularga yunon falsafasini o'rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko'p, yetuk va ishonchlidir. O'z davridan to bugunga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmda bunday bilimdon va bu ilming asoslarini chuqur biladigan boshqa bir olim bo'lmagan”.

“Hindiston” asari ustida ishlagan vaqtda Beruniyning ilmiy uslubi — materialga tanqidiy yondashuv yaqqol

namoyon bo'lgan. U 45 yoshida sanskrit tilini o'rgana boshladi, bir necha marta Hindistonda bo'ldi. Yevklidning “Elementlar” hamda o'zining astronomik asarini sanskrit tiliga tarjima qildi. U tarjimasi muvaffaqiyatsiz chiqqan deb hisoblagan “Panchatantra”ni arab tiliga tarjima qilmoqchi bo'ladi. Uning Hindiston to'g'risidagi ishi XI asr tarixini o'rganishda muhim manbaga aylandi.

Beruniyshunos olimlarning dalolat berishicha, alloma “Hindiston” asari ustida ishlayotgan vaqtda sanskrit tilidagi yuzdan ortiq manbadan foydalangan. Bu juda ulkan va mashaqqatli ish edi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraganda ham “Hindiston”dek asarning yaratilishi olamshumul voqea bo'lgan. Shu bois, “Hindiston” mashhur fundamental tadqiqot sifatida hind aql-zakovati durdonalarini dunyoga targ'ib qilishda beqiyos manba bo'lgani shubhasiz haqiqatdir. Zero, hind jamoatchiligining taniqli vakili Hamid Rizo e'tirof etganidek, “O'rta asr va yangi zamon tadqiqotchilaridan birortasi ham hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda Beruniy erishgan yutuqlarini qo'lga kiriti olmagani. Muallifning “Hindiston” asari shu yo'nalishdagi tadqiqotlar tarixida klassik namuna bo'lib qolishi bilan birga ijodkorning hind fani va madaniyatiga qilgan katta tortig'i hamdir”.

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarda Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari fransuz, italyan, nemis, ingliz, ispan, rus, fors, hind, urdu, yapon, turk tillariga tarjima qilina boshlandi. Yevropalik olimlarning Beruniy asarlariga bag'ishlangan kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Dunyoning yetakchi olimlari Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amerikalik tarixchi olim J. Sarton Beruniy o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi va XI asrni “Beruniy asri” deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho, avvalo, qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hisssasi bilan izohlana-di. Atoqli sharqshunos V. Rozen esa uning “ilmiy qarashlari taajjublanarli darajada kengligi, hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhiga xosligi”ni qayd etadi.

Abu Rayhon Beruniy ilk asari “al-Oror al-boqiya an al-qurun al-xoliya” — “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ni Jurjonda muhojirlik vaqtida, ya'ni 1000-yili 27 yoshga kirgan paytida yozib bo'lgan edi. Bu asarni birinchi marta mashhur nemis sharqshunos va beruniyshunos olimi Eduard Zaxau (1845-1930) o'rgandi. U 1876-1878-yillarda Leypsigda “Oror al-boqiya”ning arabcha nusxasini ilk bor nashr etdi. Olimlarning ta'kidlashicha, Beruniy birgina ushbu asari bilan nomini jahon ilm-fani tarixiga abadiy muhrladi. Chunki uning qiymatiga teng keladigan salmoqli asar hali yaratilmadi.

Beruniyning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari diqqatga sazovor. Olim “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ma'naviy qarashlarini bunday ifodalaydi: “Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to'g'rilik, o'zini saqlash, dindorlik, odillik, insoniy kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik, to'g'ri taxmin qila bilish va bulardan boshqa aqlga sig'maydigan,

BERUNIYNING DAVLAT VA JAMIYAT HAQIDAGI QARASHLARI DIQQATGA SAZOVOR. OLIM “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARIDA MA'NAVY QARASHLARINI BUNDAY IFODALAYDI: “YAXSHILIK XISLATLARI: TAQVODORLIK, TO'G'RILIK, O'ZINI SAQLASH, DINDORLIK, ODILLIK, INSONIY KAMTARLIK, LATOFAT, SOBITQADAMLIK, EHTIYOTKORLIK, SAXIYLIK, MULYOIMLIK, SIYOSAT VA BOSHQARISH ISHLARIDA BILIMDONLIK, TADBIRKORLIK, TO'G'RI TAXMIN QILA BILISH VA BULARDAN BOSHQA AQLGA SIG'MAYDIGAN, KISHI BAYON ETIB TUGATA OLMAYDIGAN (YAXSHI) SIFATLARDAN IBORATDIR”.

kishi bayon etib tugata olmaydigan (yaxshi) sifatlardan iboratdir”.

Demak, inson o'z umri davomida taqvo bilan to'g'ri yashashi, o'zini turli fitnalardan saqlashi, adolatga tayanishi, kamtar-kamsuqum va latofatli bo'lishi, sobitqadamlikdan chekinmasligi, har bir ishda ehtiyotkorlikni qo'ldan bermasligi, saxiylikni kasb etishi, muomalada muloyim, boshqaruv siyosatida esa bilimdon va tadbirli, taxminida to'g'ri bo'lishi shart.

Buyuk faylasufning nazariyasiga ko'ra, aynan mana shu xislatlar inson kamoloti darajasini belgilab beradi. Ya'ni jamiyat hayotida sinf va tabaqalar asosida boylik va nasl-nasabning ulug'ligi emas, balki tegishli vazifa-mashg'ulot va hunar yotmogi, xalqlar do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi lozimligini uqtiradi. Aytish mumkinki, “Yangi O'zbekiston” tamoyili zamirida ulug' ajdodimiz ilgari surgan insonparvarlik g'oyalari mujassam.

“...Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'larda oldin ketish, ilm-u hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud (nopokliklardan) tozalanshidir. Kimda shunday (sifatlar) topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetish-masa, hukm uning zarariga bo'ladi”, deb yozadi olim “al-Oror al-boqiya”da. Ushbu qarashlarni bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, yur-timiz taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatlarini ishga solishimiz, o'sib kelayotgan yosh avlod ilm-u hikmatni to'la egallashi, yaxshi xulq egasi bo'lishi, oliy fe'l — ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishimiz va jamiyatni zararli illatlardan pok tutishimiz shartdir. Ushbu vazifalar nafaqat bugungi kunimiz, balki kelayimizni ham belgilaydi, jadal sur'atlardagi islohot va yangilanish jarayonlariga ijtimoiy ma'no-mazmun bag'ishlaydi.

Dunyo olimlari tomonidan Oyadgi kraterlardan biriga Abu Rayhon Beruniy nomi berilishi ham bejiz emas. 1986-yilda Quyosh tizimida kashf etilgan va Garvard markazida 9936 raqami bilan ro'yxatga olingan kichik osmon jismlaridan biriga ham Beruniy nomi berilgan. Bu jahoniy ilm-fan markazlarining Beruniy dahosiga ko'rsatgan ehtiromi va e'tirofidan dalolatdir.

Olimning to'yi — olamning to'yi, degan naql bejiz aytilmagan. Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi nafaqat yurtimizda, balki UNESCO shafeligida xalqaro miqyosda keng nishonlanmoqda. UNESCO Ijroiya kengashining

211-sessiyasida buyuk olim tavalludi nasasi tashkilot shafeligida 2022-2023-yillarda keng nishonlanishi bo'yicha qaror qabul qilindi va o'z navbatida, xalqaro yubileylar ro'yxatiga kiritildi.

4-8-sentabr kunlari Parij shahrida “Abu Rayhon Beruniy. Geografik va intellektual sayohatlar” xalqaro ko'rgazmasi o'tkazildi. Allomaning ilmiy-ma'rifiy merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida mamlakatimizda olim hayoti va ijodiga taalluqli kitoblar, ilmiy nashrlar chop etildi. Uning asarlaridan iborat to'plamlar tayyorlandi. Merosini o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko'lami ilmiy izlanishlar olib borilib, ularning natijalari e'lon qilinyapti.

Vashingtondagi Jons Xopkins universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi Frederik Starr olim faoliyatining ahamiyatini yuqori baholadi — Beruniyning merosi o'z miqyosi va ko'p jihatdan aniq fanlar rivojlanishini oldindan ko'ra olgani bilan haqiqiy qiziqish va hayratga sabab bo'ladi. Uning asarlari tibatshunoslik sohasidagi keyingi kashtiyotlar uchun kuchli turtki va asos bo'lib xizmat qiladi.

Amerikalik tarixchi J. Sarton buyuk olim haqida “Astronomiya va matematika, astrologiya va jug'rofiya, antropologiya va etnografiya, arxeologiya va falsafa, botanika va mineralogiya uning buyuk nomisiz qashshoqlashib qolgan bo'lardi”, degan edi.

Beruniy bobomizning ilmiy g'oyalari va konsepsiyalari hozirga kelib ham dolzarbligini yo'qotmagan. Olim ko'targan ko'plab masalalar, ulug' bashoratlari va farazlari ilm-fan rivojida muhim bo'lib, qator masalalarga yechim topishda qimmatli hodisa, dunyoni anglashda butun bir davrga teng, desak ham mubolag'a bo'lmaydi!

“Bugun biz intilayotgan yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish — bu shunchaki orzu emas. Bu — aniq strategik maqsad va umumxalq harakatiga aylanib borayotgan beqiyos amaliy jarayondir”, deya ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari. Darhaqiqat, Sharqda Birinchi Renessans asoschilaridan bo'lgan ulug' ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy asarlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi O'zbekiston davlatini barpo etishda, aniq strategik maqsadlarimizni belgilab olishda muhim o'rin tutadi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
43555 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'afarov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Yeb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05